

**“BOSHLANG’ICH TA’LIM YO’NALISHI O’QUVCHILARNING CHET TILI DARSLARIDA
INTERFAOL USLUBLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI”.**

Salomova Lobar

*O’zDJTU Quyi kurslar fakulteti Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda
ingliz tili yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Hozirgi kunda chet tillarini o’rganishni juda ham ko’p usullari bor . Eng yaxshi usullardan bittasi bu –Interfaol uslubidir. Bu interfaol uslubi o’qituvchi va o’quvchi birgalikda darsni yanada qiziqarli, samarali , mazmunli olib borishidir.*

Kalit so’zlar: *Interfaol, an’anaviy ta’lim, o’qituvchi, o’quvchi, metodlar, yetakchilik qilish, guruhlash, ta’lim tarbiya*

Annotation: *Nowadays there are many ways to learn foreign languages. One of the best methods is the interactive method. The interactive method is to make the lesson more interesting, effective and meaningful for teacher and student together.*

Key words: *Interactive, traditional education, teacher, pupil, methods, leadership, grouping, education.*

Hozirgi paytda dars samarasini oshiruvchi turli tuman metodlar kundan kunga rivojlanib borayabdi. Bulardan bittasi Interfaol metodlar hisoblanadi. Darsning interfaol uslubi deganda dars davomida faqat talaba muhim ro’l o’ynaydi deb o’ylashlik xato bo’ladi mening nazarimda. Bu metodlar an’anaviy usullarni saqlagan holda dars davomida asosiy markazda o’quvchilar bo’lishi, o’zlarini dars vaqtida ko’rsata bilishi, darsda guruh- guruh bo’lib ishlashni yoki o’zi yetakchilik qilishi anglatadi. O’qituvchi ham o’quvchilarni fikrini yanada aniqroq qilib yerkazishga turtki bo’lishi kerak. Dars davomida o’qituvchi o’quvchilarga jamoa bo’lib ishlashni, maruzada qanday gapirishni, o’zining fikrlarini ravon, tiniq shaklda o’quvchilarga yetkazishlarni o’rgatish muhim ro’l hisoblanadi. Interfaol inglizcha so’z bo’lib, “interact”: “inter”- o’zaro “act”-harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. “Interaction”- hamkorlikni bildiradi. Ya’ni o’qitishning interfaol usullari o’qituvchilar bilan birgalikda darsni olib borish tushuniladi. Interfaol metodlari juda ham ko’p ulardan qay birini tanlash o’qituvchini bilim salohiyatiga bog’liq. Bu metodlarni tanlashda o’qituvchi o’quvchilarning bilimiga, yoshiga, qiziqishlariga qarab tanlash kerak. Agar o’qituvchi o’quvchilarni yoshiga munosib o’qitish usullaridan foydalanmasa, yo qiziqishlarini inobatga olmasa, dars davomida o’quvchilar zerikib, jo’shqinligi tushib ketishi mumkin. Interfaol metod biror bir muammoni o’zaro muloqatda, bahs munozarada, avvalo hamjihatlik bilan hal qilishdir. Bu usulning ahamiyati shundaki, o’qituvchi o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatgan holda mustaqil hayotga ham tayyorlaydi. Hozirgi kunda keng qo’llanilib kelayotgan interfaol metodlarni an’anaviylikni saqlagan holda dars olib borish maqsadga muvofiq bo’lardi. An’anaviy metodda dars davomida bosh ro’l o’qituvchida bo’lsa, bu hozirgi zamonda ommaga

kirib kelayotgan interfaol metodlarda esa o'quvchi bo'ladi. Ta'lim davomida o'quvchilar faolligini oshirish, darsga bo'lgan qiziqishini yanada ortirishga sabab bo'ladi.

An'anaviy darslarning maqsadlaridan biri – darsning mazmun mohiyatini , tushunchalarini ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchiga yetkazib berish tushuniladi. An'anaviy ta'lim deganda- ta'lim jarayonida muhim ro'l o'qituvchi hisoblanadi. Bu usulda o'qituvchilar o'quvchilardan ko'ra faol ishtirok etishidir. Yoki o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi. Bu metod barcha yoshlarni faollikga chorlayolmasligi mumkin .Negagi maruza ustozlar darsning yarmidan ko'pi darsni tushuntirish bilan o'tkazadi. Bu esa talabalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Maruzani tushunarligini oshiruvchi materiallar:

Avvalo vaqtga e'tibor

Fikrlarni sodda tilda bayon qilish

Barcha gaplarini qisqa , aniq qilib gapirish

Har xil shevada emas adabiy uslubdan foydalanish va hokazolar.

Interfaol metodlarning dars davomida o'rni va ro'li benihoya katta. Ayniqsa dars jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda ish olib borsa . Talabalar mustaqil fikrlay olsalar , har bir mavzu bo'yicha turlicha metodlardan foydalanolsa , jamoa bo'lib ishlolsa , izlanishlar olib borsa o'qituvchilar esa bunday faoliyati uchun shart-sharoit yaratib bersa darslar yanada samarali bo'lardi .Darslar qiziqarli ,rag'batlantiruvchi bo'lganligi bois hech qaqnday o'quvchi nazardan orqaga qolmaydi. Interfaol usullaridan na'munalar:

Klaster usuli : "Klaster so'zi bog'lam, g'ujum degan ma'nolarni anglatadi. Bu usul biror bir mavzu bo'yicha o'quvchi erkin va ochiq-oydin fikrlashidir. Bundandan maqsad o'ziga bo'lgan ishonchni, ommani oldida ravon gapirishni o'rganishdir. Klaster tizmidan foydalanish usullari;

Sinf doskasiga yo plakatga o'sha mavzu bo'yicha kalit so'zlar yoziladi

O'sha mavzuga oid lug'atlar, iboralar , ibratli so'zlar yozilishi

Yozilgan yo aytilgan so'zlar mavzuga aloqador bo'lishi va boshqalar.

"Aqliy hujum" metodi o'quvchilarni ja'moa bo'lib ishlashni o'rgatadi. Bu usuldan foydalanish uchun o'quvchilar 2 guruhga bo'linadi. Savol berilgach ma'lum vaqt ichida har bir kishi o'zini fikrini aytadilar , oxirida aniq, lo'nda javob beriladi. Bu metodda o'quvchilardan ham chaqqonlik ham zukkolik ta'lab e'tiladi va boshqa jamoaning fikriga qarshi fikr bildiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qoidalari

Bildirilgan har qanday fikr inobatga olinishi

Har bir kishini gapini bo'lmasdan hurmat bilan tinglash

O'quvchi noto'g'ri javob berayotgan bo'lsa ham gapirishidan, o'zining fikrini oxirgacha yetkazmasdan to'xtatib qo'ymaslik

Fikr yo g'oyalarni to'g'ri baholay olish o'qituvchi yo ishtirok etmayotgan talabalar tomonidan odilona baholash shular jumlasidandir.

Xulosa:

Bu interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligini , ta'lim beruvchi va oluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni, talabar erkin fikrlay olishni, guruh bo'lib ishayotganda har bir talabani fikrini inobatga olishni o'rgatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matmurodova .Z "chet tili darslarida interfaol usublardan foydalanis
2. Sattorov T.Q Bo'lakjak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi
- 3.Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.T.: "O'zbekiston",2008